

SOTSIOLINGVISTIKADA JINOYATCHI AYOLLAR NUQTINING O'ZIGA XOSLIKHLARI

Nuritdinova Rayxona Numonovna,
Farg'onan davlat universiteti
Farg'onan, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning tadqiqot obyekti sifatida jinoyatchi ayollar nutqining o'ziga xosliklari tahlil qilinadi. Ayollar nutqidagi sotsiolingvistik va psixolingvistik xususiyatlar, gender farqlari va jinsiy identifikatsiya bilan bog'liq omillar chuqur o'r ganilgan. Tadqiqotda genderolingvistika nuqtayi nazaridan jinoyatchi ayollar tilida uchraydigan muayyan lingvistik tendensiyalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistika, psixolingvistika, gender, genderolingvistika, jinsiy farqlar.

XX asr so'ngiga kelib fan olamida gender lingvistikasi yo'nalishi paydo bo'ldi. O'zbek tilshunosligida ham oxirgi o'n yillikda nutqdagi jinsiy farqlanishlarni o'r ganishga bo'lган qiziqish tobora o'sib bormoqda. Hozirgi kunda fanda nutqning ayol yoki erkakka tegishli ekanligiga ko'ra farqlanishi o'z isbotini topdi: "Xotinqizlarga xos xususiyatlardan biri ular nutqida his-hayajon holatlarining tez yuzaga chiqishidadir. Bu xususiyat ko'proq nutqiy vositalar bilan ifodalanadi. Ayol nutqida o'z fikrni ma'qullashga moyillik nisbatan ustunroq bo'ladi. Ular belgilangan talaffuz me'yorini aksar hollarda buzib gapiradilar.

Nutqda nomutanosibliklarning paydo bo'lishiga sabab bo'luvchi omillardan yana biri yosh hisoblanadi. Adresant (so'zlovchi) va adresat (tinglovchi) muloqotining yosh jihatdan farqlanishi nutqda o'ziga xoslikni yuzaga chiqaradi. Masalan, katta yoshdagи inson bilan kichik yoshdagи inson muloqot qilganda yoki tengdoshlar o'zaro kommunikatsiyaga kirishganda turli farqlanishlar – adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik holatlari kuzatiladi. Ayniqsa, bu holat katta va kichik yoshdagи kishilar muloqotida yaqqol ko'rinadi.

Ta'lim olish asnosida insonning bilimi, dunyoqarashi kengayib boradi. Bu esa bevosita uning nutqida muayyan o'zgarishlarni hosil qiladi. Angliyalik ruhshunos Bernstayn o'smirlardan tarkib topgan ikki guruhni o'zaro qiyoslaydi: "Birinchi guruh kambag'al oila farzandlari bo'lib, tizimli ta'lim olmagan, ikkinchisi esa xususiy maktablarda sifatli ta'lim olgan o'smirlardan tarkib topgan edi. Ularning har ikkalasidan bitta mavzu – futbol to'g'risida intervyu olinadi. Birinchi guruh so'z boyligi kamligi, gap qurilishi juda ham soddaligi, bundan tashqari, kamera oldida o'zlarini erkin tuta olmasligi bilan xarakterlanadi. Ikkinci guruh, aksincha, o'zlarini juda ham erkin tutar, lug'at zahirasi boyligi, jumlalarning sintaktik qurilmasi qoidalarga to'liq mos holdaligi kuzatiladi". Bu ularning ta'lim darajasi va yashash sharoiti so'zlovchi nutqida farqlanishlarga sabab bo'lishini ko'rsatadi, chunki yillar davomida shakllanib kelgan dunyoqarash shaxs nutqida aks etadi. Uning qay darajada ifodalanishi, albatta, ta'lim va tarbiya mahsuli hisoblanadi. Yosh avlodning

jamiyat a'zolari bilan erta muloqotga kirishishi uning nutqi rivojiga hamda hayotda mustaqil bo'lishiga turtki bo'ladi. Bu esa insonning shaxs sifatida shakllanishi, nutqiy rivojlanishida atrof-muhit, ya'ni jamiyatning ta'siri katta ekanligini ko'rsatadi.

Tilga ta'sir etuvchi doimiy o'zgarmas omillar ham mavjud bo'lib, ularga "adresant (so'zlovchi) va adresat (tinglovchi)ning kasbi, millati, yoshi, jinsi kabi bir qator omillar" kiradi [1; 31]. Amerikalik olimlar tadqiqotiga ko'ra, ikki jins nutqining farqlanishi bolalikdanoq boshlanar ekan [2; 7]. Ayol nutqida o'z fikrni ma'qullashga moyillik nisbatan ustunroq bo'ladi. Ular belgilangan talaffuz me'yorini aksar hollarda buzib gapiradilar" [3]:— *O'g'ling qaytsin-chi, bo'l-masa. Erning bu so'ziga O'zbek oyim ortiqcha qizishadir, labi-labiga tegmay bobillab beradir: — Siz shu kungacha barcha ixtiyor ni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz. O'g'ul o'stirish bu turda bo'lmas; u tilasin - tilamasin, shartta-shartta tilaganingizcha qilingizda, qarab turaverengiz. Siz o'zingizni "shu o'g'ling" bilar degan gapingiz bilan...*(O'tkan kunlar, 71-bet).

Bu matn shakl nuqtayi nazaridan xabar mazmuniga ega bo'lsa-da, xabar mazmuniga asoslangan faktlar tasdig'i, o'z navbatida, shikoyat akti xarakteridadir. Misolda so'zlovchi nutqida barcha ixtiyor ni o'g'lingizga topshirib, bolani bola qilmadingiz, bir xudbin qildingiz, o'g'ul o'stirish bu turda bo'lmas kabi ifodalarni qo'llab, o'z niyatini dalillar orqali asoslab amalga oshirishni ko'zlagan. Bu ifodalar, o'z fikrini ma'qullash, suhbатdosh so'ziga qulq solmaslik, voqeа-hodisaga obyektiv baho bera olmay his-hayajonga berilish ayol jinsiga xos xususiyat ekanligini ko'rsatmoqda. Adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik holatlari kuzatiladi. Ayniqsa, bu holat katta va kichik yoshdagi kishilar muloqotida yaqqol ko'rindi:

Mayorni shubhasiz tanimadi, leytenantni esa darrov tanidi. — Sanjar, uyingda kim bor? — deb so'radi leytenant. — O'zimman. Adang, oying-chi? - Ketishgan, kurortga. — Sen ishlaysan shekilli, nimaga ishga bormading?- deb so'radi mayor uning bezbetligidan achchiqlanib. — Otpuskadaman. — Ustang Mirtillaevni qachon ko'ruvding? Zavodda u seni urgan ekan, shu rostmi? — Durak on, — dedi u, — meni odam qilmoqchimish. Mehnat maymunni odamga aylantirganmish, mehnat qilmasa, odam qayta maymunga aylanarmish. — Xo'sh, keyin-chi? — U urdi! Shu kerakmi sizga?! — Sanjar shunday deb ko'zini lo'q qilib oldi. — A ya mejdu prochem, uni urmadim. Qo'limni harom qilgim kelmadi. (Alvido, bolalik. 62-bet).

Mazkur misolda dialekt unsuri (ada-dada), varvarizm (otpuska, on, a ya mejdu prochem, durak) qo'llanilgan. Gap bo'laklarining odatdag'i tartibi buzilganligi hamda asosan to'liqsiz gaplardan foydalanilganligi ham o'ziga xos tarzda o'smir yoshlar nutqini hosil qilgan. "Qo'lni harom qilmaslik" shaklidagi ifoda esa "yomon ishga qo'l urmaslik" ma'nosini anglatib, yoshlar nutqida qo'llanuvchi o'ziga xos ifoda birligi (sleng) sifatida olinadi. Tildan foydalanuvchi har bir shaxsning nutqida fonetik sathdan to sintaktik sathga qadar til birliklarining qo'llanishida o'ziga xos vazifalari mavjud. Jumladan, gap bo'laklarining odatdag'i tartibi buzilishi "inversiya" hisoblanib, bu komponentlarning odatdag'i o'rnini almashtirish deganidir. Bunday o'zgarishlardan maqsad asosiy fikrni birinchi o'ringa chiqarib

uqtirishdir”, qolaversa, to‘liqsiz gaplardan foydalanish yoshlarning sabrsizlik bilan asosiy fikrga tezro o‘tish, qoidalarga bo‘ysunishni istamasligini ko‘rsatadi. Qo‘pol so‘zlar hamda varvarizmlarni qo‘llash esa so‘zlovchining o‘z shaxsni atrofdagilarga maqsadli ravishda ko‘rsatishi va ta’lim-tarbiya darajasini ifodalaydi. Shveysariyalik psixolog J.Piaj彭ning aniqlashicha, yosh bolalar o‘zaro muloqotga kirishganda suhbatdoshiga g‘amxo‘rlik ko‘rsatmas, shunchaki o‘z-o‘zi bilan so‘zlashar ekanlar. Bu holat qariyalar nutqida ham kuzatilib, ularning hayotdan nolish, ularga doimo g‘amxo‘rlik ko‘rsatish kerakligi haqida o‘ziga o‘zi so‘zlab o‘tirishida ko‘rinadi, ya’ni yuzaga chiquvchi fikrlar zanjirining qay yo‘sinda ifodalanishiga ham inson yoshi sezilarli darajada ta’sir etadi [4; 34]. Bu ularning ta’lim darajasi va yashash sharoiti so‘zlovchi nutqida farqlanishlarga sabab bo‘lishini ko‘rsatadi, chunki yillar davomida shakllanib kelgan dunyoqarash shaxs nutqida aks etadi. Uning qay darajada ifodalanishi, albatta, ta’lim va tarbiya mahsuli hisoblanadi. Yosh avlodning jamiyat a’zolari bilan erta muloqotga kirishishi uning nutqi rivojiga hamda hayotda mustaqil bo‘lishiga turtki bo‘ladi.

Ijtimoiy omillar tilda yuz berayotgan jarayonlarni tubdan o‘zgartirishga qodir emas, ammo ularsiz ham til taraqqiyoti mavjud bo‘lmaydi. Odatda, adabiy tilni belgilashda ma’lum bir jamiyatning ijtimoiy jihatdan yuqori tabaqasi nutqi asos qilib olinadi. Ko‘pincha yuqori tabaqa sifatida ziyolilar “tili” tanlab olinadi, xususan, adabiy til me’yorlarini belgilashda adabiy til bilan muntazam aloqada bo‘lgan tabaqa vakillari nutqi tadqiq qilinib, undagi til xususiyatlari umumiylashtiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бердалиев А. Ўзбек синхрон социолингвистикаси. – Хўжанд, 2015.
2. Бакушева Е.М. Социолингвистический анализ речевого поведения мужчины и женщины. Автореф. дисс. на соискание уч.степ.канд.фил.наук. – М., 1995.
3. Тухтасинов И.М. Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков).
4. Щеглова Л. В., Шипулина Н. Б., Суродина Н.Р. Культура и этнос: учеб.пособие для сомост.раб. – Волгоград: Перемена, 2002.
5. Насруллаева Н.З. Инглиз ва ўзбек тилларида оламнинг фразеологик манзарасида гендер концептларининг шаклланиши. Филол. фан. номз. (DSc) дисс. автореф. – Тошкент, 2019.